

LOGISTIKA TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI JAHON TAJRIBASI VA UNI RESPUBLIKAMIZDA QO'LLASH AFZALLIKLARI

Xuzayev Fazliddin Elmurodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Biznesni boshqarish” kafedrası

professori v.b. i.f.d., DSc.

E-mail: fazliddinxujaev72@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda logistika tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning xalqaro tajribasi tahlil qilindi hamda ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Singapur logistika tizimlarida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, Internet buyumlari va blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi qiyosiy o'rganildi. Natijalar mazkur texnologiyalar logistika jarayonlarini optimallashtirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilganini ko'rsatdi. Tadqiqot transport-logistika infratuzilmasini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish hamda milliy logistika tizimining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirdi.

Kalit so'zlar: logistika, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, Internet buyumlari, blokcheyn, raqamlashtirish, logistika samaradorligi.

Аннотация

В исследовании был проведён анализ мирового опыта использования инновационных технологий в логистических системах и оценены возможности их применения в Республике Узбекистан. Были сравнительно изучены практики Германии, Японии, Великобритании и Сингапура по внедрению искусственного интеллекта, больших данных, Интернета вещей и технологии блокчейн в логистические процессы. Полученные результаты показали, что использование данных технологий способствовало оптимизации логистических операций, сокращению сроков доставки, снижению затрат и более эффективному использованию ресурсов. Исследование сформировало научно-практические выводы по цифровизации транспортно-логистической инфраструктуры, расширению применения современных технологий управления и повышению конкурентоспособности национальной логистической системы.

Ключевые слова: логистика, инновационные технологии, искусственный интеллект, большие данные, Интернет вещей, блокчейн, цифровизация, эффективность логистики.

Abstract

This study analyzed international experience in applying innovative technologies to logistics systems and evaluated their implementation opportunities in Uzbekistan. Logistics practices in Germany, Japan, the United Kingdom, and Singapore were comparatively examined with particular attention to artificial intelligence, big data, the

Internet of Things, and blockchain technologies. The findings demonstrated that these technologies improved logistics performance by optimizing operational processes, reducing delivery time, lowering transportation costs, and increasing resource efficiency. The study established scientific and practical conclusions for accelerating the digital transformation of transport and logistics infrastructure, expanding the application of advanced management technologies, and strengthening the competitiveness of the national logistics system through innovation-driven development.

Keywords: logistics, innovative technologies, artificial intelligence, big data, Internet of Things, blockchain, digitalization, logistics efficiency.

KIRISH

Global iqtisodiyotning jadallashuvi va xalqaro savdo hajmining kengayishi transport-logistika tizimlarining samaradorligini oshirishni muhim iqtisodiy vazifalardan biriga aylantirdi. Zamonaviy logistika tizimlarida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, Internet buyumlari, blokcheyn va bulutli texnologiyalarni qo'llash yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish, ta'minot zanjiri barqarorligini mustahkamlash hamda logistika xarajatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda logistika jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro transport yo'laklaridan samarali foydalanish, logistika xizmatlari sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va milliy logistika tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Logistika tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning samarali amaliyotlarini milliy sharoitga moslashtirish va joriy etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili logistika jarayonlarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish hamda transport-logistika tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda logistika tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning jahon tajribasi tahlil qilindi, ularning amaliy natijalari baholandi hamda O'zbekiston transport-logistika tizimida qo'llashning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari logistika jarayonlarini takomillashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida transport-logistika tizimini rivojlantirish va tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlari sifatini oshirish hamda xalqaro transport yoʻlaklaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar logistika tizimining barqaror rivojlanishi uchun zarur institutsional asoslarni shakllantirgan [1].

Tashqi savdoni liberallashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda logistika xizmatlarini takomillashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va eksport-import operatsiyalarining samaradorligini oshirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv logistika tizimida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish zarurligini koʻrsatadi [2].

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarda logistika infratuzilmasini kengaytirish, yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish va ishlab chiqarish bilan logistika tizimlari oʻrtasidagi integratsiyani kuchaytirish ustuvor yoʻnalish sifatida eʼtirof etilgan. Ushbu yondashuv logistika samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini tasdiqlaydi [3].

Xoʻjayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Oʻzbekistonda agrologistika tizimining rivojlanish holati tahlil qilinib, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, saqlash va tashish jarayonlarini takomillashtirish qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [4].

Khodjaev logistika boshqaruvining funksional modellarini oʻrganib, eksport faoliyatini rivojlantirishda logistika jarayonlarini raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini qoʻllash va logistika zanjirlarini samarali boshqarish korxonalar faoliyatining natijadorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslagan [5].

Agarkov, Kuznetsova va Gryaznova innovatsion menejmentning nazariy asoslarini yoritib, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va logistika tizimlariga joriy etish resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishini taʼkidlagan. Mualliflar innovatsion boshqaruvning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab bergan [6].

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini ishlab chiqarish tizimlarida innovatsiyalarni boshqarish va tashkil etish sohasidagi xorijiy va oʻzbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, murakkab yuqori texnologiyali tarmoqlarni boshqarish, ulardan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida resurslardan samarali foydalanish muammolarini oʻrganish, yangi modellarni shakllantirish, ulardan foydalanish va ishlab chiqish yoʻnalishlari boʻyicha tadqiqot guruhlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga tayanadi. iqtisodiyotdagi xatti-harakatlar va isteʼmol, davlat organlarining hisobot maʼlumotlari va statistik maʼlumotlar, qonunchilik va meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, Oʻzbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida funksional yoʻnaltirilgan qidiruv,

iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Singapur kabi davlatlarda logistika tizimlari sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), Internet narsalar (IoT) va blokcheyn texnologiyalari yordamida boshqarilmoqda (1-jadval). Bu texnologiyalar real vaqt rejimida yuk harakati, transport holati va ombor zaxiralarini kuzatish imkonini beradi. Masalan, DHL kompaniyasi "what3words" geolokatsiya tizimi bilan hamkorlikda yer yuzasini 3×3 metrlik kataklarga bo'lib, har bir nuqtani aniq belgilash imkonini beruvchi manzillash yechimini joriy etgan bo'lib, bu "oxirgi mil" bosqichidagi yetkazib berish aniqligi va samaradorligini sezilarli oshirishga xizmat qilmoqda [11]. Cainiao (Alibaba Group) tomonidan yaratilgan "aqlli logistika" platformasi esa katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va Internet narsalar (IoT) yechimlari asosida Xitoy ichidagi hamda xalqaro yuk oqimini to'liq raqamlashtirib, buyurtmalarni Xitoy ichida 24 soat, jahon miqyosida esa 72 soat ichida yetkazib berishni maqsad qilmoqda [12].

1-jadval

Rivojlangan davlatlarda innovatsion logistika texnologiyalarining qo'llanilishi¹

Davlat	Texnologiya	Qaysi kompaniya/tizim	Erishilgan natija
Germaniya	Avtomatlashtirilgan saralash va sun'iy intellekt rejalashtirish	DHL logistika markazlari	Soatiga 150 000 jo'natma qayta ishlash
Buyuk Britaniya	Ombor robotlari	"DHL Supply Chain" markazi	1 robot 700 qutini 1 soatda tushirishga erishdi va jismoniy mehnat yuklamasi kamaydi
Singapur	To'liq avtomatlashtirilgan port	Tuas Mega Porti	25 mln TEU/yilgacha quvvat
Yaponiya	Robotlashtirilgan ombor va Sanoat 4.0 logistikasi	Milliy logistika dasturi	2027 yilgacha logistikaning 50% avtomatlashtirilishi rejalashtirilgan

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar rivojlangan davlatlar innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali erishgan natijalarni yaqqol ko'rsatadi. Xususan, Germaniyada DHL korxonasi Leypzig shahridagi logistika markazida to'liq avtomatlashtirilgan saralash hamda sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimini joriy qilish orqali jo'natmalarni qayta ishlash quvvatini soatiga 150 ming donaga yetkazgan va saralash sig'imini qariyb 50% ga oshirgan [7]. Buyuk Britaniyada DHL Supply Chain korxonasi ombor jarayonlariga zamonaviy robotlarni joriy etgan bo'lib, bitta robot bir soatda 700 tagacha qutini tushirish va joylashtirish imkonini bergan; bu xodimlarning jismoniy mehnat yuklamasini kamaytirgan va operatsion tezlikni oshirgan [8]. Yaponiya ham omborxonalarini to'liq robotlashtirish va Sanoat 4.0

¹ [7],[8],[9],[10] manbalar asosida muallif ishlanmasi

logistikasini joriy etishga e'tibor qaratmoqda: mamlakat Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) tomonidan 2027-yilga qadar mamlakat logistikasini 50% gacha avtomatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalashtirilgan [10]. Singapurning mashhur "Tuas Mega Port"ida esa to'liq avtomatlashtirish ishlari davom etmoqda. Port bosqichma-bosqich ishga tushirilib, dastlabki bosqichda yillik 25 million TEU (logistikada konteynerlar tashishda ishlatiladigan standart o'lchov birligi) gacha quvvatga ega bo'ladi; bu ko'rsatkich 2040-yilga kelib 65 million TEU ga yetkazilishi rejalashtirilgan va portni yanada kengaytirish ishlari olib borilmoqda [9]. Bu, o'z navbatida, global tranzit tezligini oshirishga hamda port navbatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Logistika tizimlarida innovatsion texnologiyalarning qo'llanish yo'nalishlari va ularning samarasi¹

Texnologiya turi	Qo'llanish sohasi	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichi
Sun'iy intellekt (AI)	Transport yo'nalishlarini optimallashtirish, talab prognozi	Yetkazib berish vaqtini 20-30% ga qisqartiradi
Katta ma'lumotlar (Big Data)	Analitik tahlil, rejalashtirish	Xarajatlarni 15% gacha kamaytiradi
Internet narsalar (IoT)	Real vaqt kuzatuv, xavfsizlik	Yo'qotishlarni 25% gacha kamaytiradi
Blokcheyn (Blockchain)	Hujjat aylanishi, ishonchlilik	Shaffoflikni ta'minlaydi, firibgarlikni kamaytiradi

Logistika tizimlarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati bir necha yo'nalishda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvalo, logistika axborot tizimlari (masalan, ERP - Enterprise Resource Planning, WMS - Warehouse Management System, TMS - Transport Management System) logistika bo'g'inlarining barcha ma'lumotlarini markazlashtirilgan tarzda boshqarishni ta'minlaydi. Bu esa ombor zaxiralari, transport vositalari, yuk oqimlari va yetkazib berish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish hamda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'qitish algoritmlari transport va taqsimot jarayonlarini optimallashtirishda - misol uchun, yuklarni tashish yo'nalishini aniqlash, yuk hajmini prognozlash, eng samarali marshrut va vaqtni belgilash kabi vazifalarda keng qo'llanilmoqda. Bu esa yetkazib berish tezligini oshirish va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishga yordam beradi.

Dunyo miqyosida Swisslog (Shvetsariya), Optym (AQSh), Volansi (AQSh) kabi kompaniyalar avtomatlashtirilgan ombor tizimlari, multimodal transportlarni boshqarish, dronlar orqali yuk tashish va tahliliy modellarni joriy etish orqali logistika sohasida yangi bosqichni boshlab bergan. Masalan, Volansi kompaniyasi vertikal parvoz qiluvchi dronlar (VTOL) yordamida yuk tashish tizimini joriy etgan bo'lib, bu

¹ Muallif ishlanmasi

texnologiya chekka hududlarga tezkor yetkazib berish muammosini hal etadi. Project 44 platformasi butun ta'minot zanjirini yagona raqamli maydonda birlashtirib, yuklarning real vaqt kuzatuvini ta'minlaydi.

O'zbekiston ham ushbu tajribalarni o'z logistika tizimida bosqichma-bosqich tatbiq etmoqda. Mamlakatda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va transport xizmatlarini samarali tashkil etish bo'yicha muhim strategik hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-28-sonli qarori¹ ushbu sohadagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Qarorga muvofiq, xalqaro yuk tashish hajmini ikki baravarga oshirish, konteyner tashish ulushini 1,5 baravar ko'paytirish, shuningdek, transport xarajatlarini kamaytirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va xalqaro logistika markazlarini tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan². Ushbu strategiyada logistika markazlarini ko'paytirish, yuk oqimini boshqarishda sun'iy intellekt va elektron boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, hamda xalqaro transport yo'laklari orqali mamlakat tranzit salohiyatini oshirish maqsad qilingan. Transport-logistika tizimida elektron navbat tizimi, raqamli chegara boshqaruvi va yagona ma'lumot almashuv platformalari joriy etilmoqda.

O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi islohotlari jahon tajribasiga yaqinlashib borayotganini ko'rsatadi. Hozirda mamlakatda 77 ta xalqaro chegara punkti faoliyat yuritmoqda va ularda logistika xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Transport-logistika xizmatlarini eksport qilish hajmini ikki baravarga oshirish, Jahon banki Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekistonning o'rnini 55-pog'onadan yuqoriga ko'tarish kabi maqsadlar ham belgilangan; joriy holatda mamlakat ushbu reytingda 88-o'rinni egallab turibdi [13].

Xalqaro tajribada logistika tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlik, energiya tejamkorlik va mijozlarga yo'naltirilgan xizmat sifatini ham yaxshilaydi. O'zbekistonning logistika sohasini raqamlashtirish, "aqlli transport" infratuzilmasini shakllantirish va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv mexanizmlarini kengaytirish kelgusi yillarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Logistika tizimi nafaqat tovarlar va moddiy resurslarni harakatini boshqarish, balki ishlab chiqarishdan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan butun ta'minot zanjirini samarali va uzluksiz boshqarish mexanizmi sifatida iqtisodiy tizimning strategik elementi hisoblanadi. Tarixan logistika harbiy ta'minotdan boshlanib, transport

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil, 27-yanvar PQ-28-son "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>

logistika, tizimli va integratsiyalashgan bosqichlar orqali rivojlanib, hozirgi raqamli va avtomatlashtirilgan davrga yetdi. Zamonaviy logistika jarayonlarida Sun'iy intellekt, IoT, Big Data, blokcheyn va robototexnika kabi innovatsion texnologiyalar asosiy vositalar sifatida ishlatiladi, ular yordamida xarajatlar kamayadi, yetkazib berish vaqti qisqaradi va operatsion jarayonlar optimallashtiriladi hamda, xizmat ko'rsatish sifati oshadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirilgan omborlar, raqamli monitoring, aqlli transport tizimlari va geolokatsiya yechimlari logistika samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. O'zbekiston shunday innovatsion yondashuvlarni tatbiq etib, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi logistika markazlari va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga, ta'minot zanjirini samarali tashkil etishga va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. Natijada, logistika nafaqat moddiy oqimlarni boshqarish vositasi, balki iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish va raqobat ustunligini ta'minlovchi strategik sohaga aylanib, innovatsion yechimlar orqali korxonalar va butun mamlakat iqtisodiyotiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “О мерах по совершенствованию транспортной инфраструктуры и диверсификации внешнеторговых маршрутов перевозки грузов на 2018 - 2022 годы” № PQ-3422 05.12.2017 <https://lex.uz/docs/3436207>
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 11.03.2017 № PQ-3351 «О мерах по дальнейшей либерализации внешней торговли и поддержке субъектов предпринимательства». <https://lex.uz/docs/3470725>
3. О дополнительных мерах по повышению эффективности свободных экономических зон и малых промышленных зон. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25.10.2017 г. № PQ-3356. <https://lex.uz/uz/docs/3392859>
4. Хужаев Фазлиддин Элмурадович Современное состояние агрологистики в Республике Узбекистан (2020).
5. Khodjaev, F. E. (2021). Functional models of logistics management in the development of exports in Uzbekistan. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 11(9), 26-33
6. Агарков, С.А. Инновационный менеджмент и государственная инновационная политика: учебное пособие / С.А. Агарков, Е.С. Кузнецова, М.О. Грязнова. - Москва: Академия Естествознания, 2011. - 143 с.
7. Superlatives in Logistics - Hub Leipzig [Elektron resurs] // DHL Group. - Kirish rejimi: <https://www.dhl.com/de-en/microsites/express/hubs/hub-leipzig/discover/logistics.html>
8. DHL to deploy 1,000+ additional robots across UK operations to support business growth in e-commerce and life sciences health care sector [Elektron resurs] // DHL Group. - 09.07.2025. - Kirish rejimi: <https://group.dhl.com/en/media-relations/press-releases/2025/dhl-to-deploy-1000-additional-robots-across-uk-operations.html>

9. Port of the Future [Elektron resurs] // Maritime and Port Authority of Singapore (MPA). - Kirish rejimi: <https://www.mpa.gov.sg/maritime-singapore/port-of-the-future>
10. Japan plans automated cargo transport system to relieve shortage of drivers and cut emissions [Elektron resurs] // CNBC. - 03.11.2024. - Kirish rejimi: <https://www.cnn.com/2024/11/03/japan-plans-automated-cargo-transport-system-to-relieve-shortage-of-drivers-and-cut-emissions.html>
11. Changing the Last Mile Three Words at a Time [Elektron resurs] // DHL Group, Delivered. - Kirish rejimi: <https://www.dhl.com/global-en/delivered/innovation/changing-the-last-mile-three-words-at-a-time.html>
12. Cainiao Ramping up Investment in its Global Network [Elektron resurs] // Alibaba Group. - 23.06.2020. - Kirish rejimi: <https://www.alibabagroup.com/en-US/document-1491566211274637312>
13. At Your Service?: The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan [Elektron resurs] // World Bank. - 2024. - Kirish rejimi: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/promise-of-services-led-growth>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**